

ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TA'LIM PARADIGMALARI, TA'LIM TAMOYILLARI VA QONUNIYATLARI

Tursunova Feruza Otaqulovna

Navoiy davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakulteti "Pedagogika-psixologiya" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogikada ta'lism paradigmalari, ta'lism qonuniyatlari va tamoyillari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amaliyot, paradigma, integratsiya, pedagogika, tamoyil.

Jahon ta'lim amaliyotida ilm-fan va ishlab chiqarish jarayoniga axborotkommunikatsion texnologiyalarining integratsiyalashuvi turli soha vakillarining kasbiy malakalarini takomillashtirish, kasbiy-sohaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin yaratdi. Jahonning yetakchi universitetlarida tillarni maqsadli yo'naltirib o'qitish, xususan, strategik sohalardan biri hisoblanuvchi filologiya yo'nalishida mutaxassislarning turli tillarda so'zlashish layoqatini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda tillarni chuqur o'qitishga alohida e'tibor qaratilib, ta'lism jarayonini umumjahon ta'lism standartlariga mos ravishda tashkil etish maqsadida turli xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar rivojlantirilmoqda. Zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lism olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'iga qo'yish, yoshlarning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo'lislilarini ta'minlash; nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish va shu asnoda ularning o'z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishlari uchun katta imkoniyat yaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi islohotlar uzluksiz ta'lism tizimiga innovatsion g'oyalarni, axborotkommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan. Shuningdek, o'qitish sifati monitoringining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lism standartlarini tatbiq etishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflarni, tavsiyalar tizimini ishlab chiqish, ta'lism va o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, uni avtomatlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda yangilangan ta'lism turlarini oliy ta'lism muassasalariga keng tatbiq etish, mutaxassislar tayyorlash darajasi va sifatini oshirish tizimini kuchaytirish, ta'lism muassasalarining moddiy-texnik ta'minoti, dasturli-tashkiliy va boshqa zurur

resurslarni to'plashda tashabbuskorlik ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lism muhitini yaratish orqali murakkab pedagogik vaziyatlar yechimini topa oladigan zukko kadrlar salohiyatini oshirishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Tahsil oluvchilarning ta'lism natijalarini diagnostika qilishda dasturiy vositalar-

Moodle, Wordpress, PHP, Turbo Site, Bandicam, Audisity, Movavi Video, Editor

Plus, AutoPley, Media Studio 8, Macromedia Flashdan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi.

Moodle, Wordpress, PHP, Turbo Site, Bandicam, Audisity, Movavi Video, Editor Plus, AutoPley, Media Studio 8, Macromedia Flashdan samarali metodik manba sifatida foydalanish imkoniyatlari o'rganilganda, o'qitish sifatini ta'minlash va ta'lif muassasasi faoliyatining ijtimoiy samaradorligiga mazkur metodika sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quv jarayoni sub'ektlarida mazkur jarayondan qoniqishning hosil bo'lishi;
- o'quv jarayonining tashkil etilishi, borishi, natijalari va sifatining namoyon bo'lishi;
- o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro hamkorligi;
- ta'lif muassasasining mavjud mavqyei;
- ta'lif muassasasida amal qiladigan strategiyalar kabilar.

O'quv jarayoni bir qator o'ziga xos ko'rsatkichlirlarga ega:

a) o'quv jarayonining yetakchi maqsadi – bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishi;

b) didaktik jarayonning mazmuni – barcha dasturlar uchun mazmun yagona hisoblanadi;

v) o'quv jarayoni doirasida - o'rgatish faoliyati davomida o'qituvchining yo'naltiruvchilik, rahbarlik, maslaxat beruvchilik mavqyei namoyon bo'ladi;

g) o'quv jarayoni doirasida pedagogik faoliyat o'quvchilarning yetakchilik mavqyei bilan uyg'unlashadi.

Tadqiqot davrida o'quv jarayonida o'qitish sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan quyidagi tarkibiy qismlar ajratildi:

1. Moyillik hosil qiluvchi – o'quvchilarni faol o'rganish jarayoniga jalb qiluvchi va bilish faoliyatining barcha bosqichlarida faollikni saqlab qoluvchi qiziqishlari, ehtiyojlari, mayllari.
2. Yo'naltiruvchi – o'quvchilarning o'quv-biluv maqsadini amalga oshirish uchun uni rejalashtirishlari va bashorat qilishlari.
3. Mazmunli-operatsion nuqtai nazardan - axborotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishslash maqsadida yetakchi bilimlar va usullarni o'zlashtirish.
4. Quvvatiga ko'ra – diqqat, iroda va kechinmalar.
5. Nazariy-tahliliy jihatdan – o'quvchilarning o'z-o'zlarini mustaqil nazorat qilishlari, bajarilgan harakatlarning borishi va natijalarini mustaqil baholashlari, o'zgalarning bahosiga tayangan holda o'zlari va faoliyatlariga bergen

baholari, o'rganish jarayonlarini mustaqil boshqarishlari va tuzatishlar kiritishlari, o'z o'zlarini boshqarishlari kabilar.

Shunday qilib, tahsil oluvchilarning ta'lif natijalarini diagnostika va korreksiya qilish ularning bilish layoqatlarini rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalar vositasida ularning ta'lif natijalarini aniqlashga, zarur bo'lsa, korreksiya talab bo'shlari to'ldirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlarni tashkil qilish mazmuni, mohiyati o'rganilganda o'qitishning didaktik tamoyillari muhim o'rinni egallashi aniqlandi.

O'qitish sifatining namoyon bo'lishida o'qituvchilarning shaxsiy yutuqlari muhim o'rinni egallaydi. Ularning shaxsiy yutuqlari quyidagilarda aks etadi:

- ta'lif jarayonini takomillashtirish sohasidagi yutuqlari;
 - o'qituvchilarning metodik, ilmiy, ixtirochilik ishlari;
 - turli tanlovlarda ishtirok etish darajalari;
 - shaxsiy-ta'limiyoq quvvatlarini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatlar;
 - mustaqil bilim olish va o'zlarini takomillashtirish yo'nalishidagi ishlari kabilar.
- O'qitish sifatini ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydigan holatlardan yana biri o'quv rejasining bajarilishidir. O'quv rejasining bajarilganligini bir qator holatlar tasdiqlaydi:
- me'yorlar va ularning bajarilishi;
 - o'quv rejasining alohida o'ziga xos yo'nalishlari ijrosi;
 - ta'lif sohalari;
 - sinflarni ixtisoslashtirish va maxsus yo'nalishlarni tashkil etish;
 - o'quv rejasidagi muktab komponentiga rivoja qilish;
 - o'quvchilar bilan individual ishlar ko'lami;
 - o'quvchilarning tanlovlariga asoslangan holda chuqurlashtirilgan ta'lif bilan qamrab olish;
 - o'quvchilarning o'quv yuklamalari ko'lami kabilar.

Biz 2021-2022 o'quv yilining 1-yarim yilligida talabalar o'quv yutuqlarini baholash uchun O'zbek tilining qiyosiy grammatikasi o'quv kurslari bo'yicha 2 variantdagi test topshiriqlari va ona tili va o'qish fanidan matnni tushinish darajasini aniqlash bo'yicha 3 variantdagi test topshiriqlari tayyorlandi.

O'quv kursi bo'yicha tuzilgan test topshiriqlari Moodle bo'yicha berilgan baholashning ochiq blokidan foydalanildi.

Test topshiriqlarida grammatika, leksikologiya, semiotika kabi sohalarga oid savollar kiritildi.

Testlarning shu asosda tuzilishi bir qator afzalliklarga ega. Bir tomondan bunday yondashuv, o'zbekistonlik talabalarning o'quv yutuqlarini xalqaro shkalada baholash imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan O'zbekistonda amalda bo'lgan davlat standartlari va o'quv dasturlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

O'quvchilar o'quv yutuqlarini baholash milliy tadqiqotini o'tkazishda maktab va

o'quvchilarni tanlash quyidagi reja asosida amalga oshirildi:

Tajriba-sinov bilan qamrab olingen maktablar oddiy rondonlashtirilgan tanlovdan foydalanildi. Nazorat guruhi esa ekspertlar tomonidan hududlar va maktablardan olingen ma'lumotlar asosida belgilandi. Maktablar ushbu guruhdan

tasodifiy yo'l bilan tanlandi. Maktablar ro'yxati tayyorlanib MS EXCEL dasturining "Generate Random Number" funksiyasi asosida rondonlashtirilgan tanlov amalga oshirildi.

Respublika miqyosidagi o'qitish sifati monitoringini amalga oshirish jarayoniga

3 ta OTMlarning 734 nafar talabasi qamrab olindi.

Talabalar diqqatiga turli hayotiy vaziyatlarda uchraydigan matnlar havola etildi. Mazkur testlar talabalarda hozirgi kunda mavjud "grammatik savodxonlik" tushunchasining shakllanganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan. Mazkur tushunchaga asosan talabalarda turli uslublarda yozilgan matnlarni tushunishi, ularning mazmuni bo'yicha fikr-mulohaza yuritishi, ularning mazmuni va ahamiyatiga baho berishi va o'qiganlari yuzasidan o'z fikrlarini bayon eta olishi zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Nonaka I., X. Takeuchi. Spiral znaniy studentov.-M.:Raduga, 2019.-S.78.
2. Zvereva N.N., A.A. Kasyan "Metodologicheskoe znanie v soderjanii obrazovaniya".
3. J.:Pedagogika. - 2019. №1. –S. 9-11
4. Chernyavskaya A.P., Bayborodova L.V., Xarisova I.G. Texnologii
5. pedagogicheskoy deyatelnosti. Chast I. Obrazovatelnye texnologii: uchebnoe posobie/pod obЩ. red. A.P.Chernyavskoy, L.V.Bayborodovoy. — Yaroslavl;Izd-vo YaGPU,2012. — 311 s.
6. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: Uchebnoe
7. posobie. – M.: Narodnoe obrazovanie, 2018. – 256 s